

**Luqmanov Bunyod Murtazayevich**  
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti doktaranti

---

## **O'ZBEKISTON TARAQQIYOTINING YANGI BOSQICHIDA IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING STRATEGIK JIHATLARI**

**Annotasiya:** Mazkur maqolada milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash, xususan, Raqamli iqtisodiyotni asosiy "drayver" sohaga aylantirish, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini oshirish, mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash, iqtisodiyotda moliyaviy resurslarni ko'paytirish, tadbirkorlik faoliyatini uchun qulay muhit yaratish, hududlarni mutanosib rivojlantirish amalga oshirilayotgan strategik rivojlanish omillari tahlilga tortilgan.

**Kalit so'zlar:** iqtisodiyot, harakatlar strategiyasi, taraqqiyot strategiyasi, iqtisodiy o'sish, drayver, klaster.

**Abstract:** In this article, rapid development of the national economy and ensuring high growth rates, in particular, turning the digital economy into the main «driver» sector, increasing the production volume of industrial products, further improving the investment environment in the country, increasing financial resources in the economy, creating a favorable environment for business activities, the strategic development factors of the regions are analyzed.

**Key words:** economy, action strategy, development strategy, economic growth, driver, cluster.

**Аннотация:** В данной статье бурное развитие национальной экономики и обеспечение высоких темпов роста, в частности, превращение цифровой экономики в основной «драйверный» сектор, увеличение объемов производства промышленной продукции, дальнейшее улучшение инвестиционной среды в стране, увеличение финансовых ресурсов в экономике, создание благоприятной среды для предпринимательской деятельности, анализируются стратегические факторы развития регионов.

**Ключевые слова:** экономика, стратегия действий, стратегия развития, экономический рост, драйвер, кластер.

---

**KIRISH VA DOLZARBLIGI.** Hozirda globallashuv kuchayib borayotgan, zamonaviy, kreativ bilimga asoslangan iqtisodiyot davrida milliy darajada iqtisodiy faoliyatni barqarorlashtirish, sohada raqobatbardoshlikni ta'minlash, yangi iqtisodiy bilimlarni o'zlashtirish, iqtisodning muhim drayverlarini soha qo'llash orqali texnologik muammolarni tizimli bartaraf etib borish, kichik, xususiy va inotegrativ tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish jumriyat iqtisodiy modernizatsiyalashuvida samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

So'nggi yillarda mamlakatimiz ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy umuman barcha jabhalarida rivojlanish va ochiqlik, shaffoflik sari dadil qadamlar tashlana boshlandi. Jumladan, so'nggi yillarda ayniqsa inson huquq va ekinliklarini mustahkamlash, iqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash hamda yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlash, ilmiy va amaliy jabhalarning mutanosibligi ya'ni nazariy bilim, ilmiy ishlarning so'nggi yangiliklarini amaliyotga tadbiq etish, undan tashqari, mamlakatimiz ichki va tashqi siyosatidagi tub burilishlarni amalga oshirish orqali O'zbekistonning jahon siyosiy va iqtisodiy maydonidagi muhim o'rni yanada mustahkamlanmoqda.

Iqtisodchilarning fikricha, milliy boylikning shakllanishida inson kapitalining hissasi rivojlangan mamlakatlarda 75 foizni, oddiy kapitalniki 19-20 foizni, tabiiy resurslarniki faqatgina 2-5 foizni tashkil qilar ekan. Alovida korxona yoki umumjamiyat taraqqiyotiga ta'sir etuvchi birlamchi omil – inson va uning salohiyati ekanligi, mehnat intizomiga rioya qilish, ish vaqtidan unumli foydalanish, fantexnika yutuqlarini keng joriy etish va jamiyatni samarali boshqarish insoniy kapitalning qanchalik rivojlanganligi bilan belgilanadi. Jamiyatda ishga yaroqli ishchilar soni – bu miqdoriy o'lehamdir. Ularning sifat jihatni esa – bu ishlovchilarning malaka mahorati, bilimi, tajribasidan iborat.

Insondan hech ajratib bo'lmaydigan boylik – bu uning ish kuchidir. Bu uning jismida mujassamlashgan qobiliyatidir. Bu qobiliyat ortib, yangi-yangi qiymatlar yaratadi. Shunga ko'ra uni inson kapitali deb atashadi<sup>i</sup>.

**TAHLIL VA NATIJALAR.** Davlatimiz iqtisodiyotini yanada rivojlantirish hamda uni yangi darajaga olib chiqish davomli ravishda Yangi O'zbekistonni qurish yo'li orqali qadamlar tashlana boshlandi. 2017-yil 7-fevralda qabul qilingan O'zbekistonni 2017-2021-yillarda rivojlantirishning besh ustuvor yo'nalishi "Harakatlar Strategiyasi" kutilajak istiqbolli kelajak uchun sobitqadamlik bilan harakatni boshlab berdi. Mazkur rivojlanish strategiyasi doirasida ustuvor yo'nalishlar yuzasidan 300 ga yaqin qonun, 4 mingdan ziyod O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari qabul qilindi. Mazkur masala doirasida "Harakatlar Strategiyasi" da iqtisodiyotda tub o'zgarishlarni yuzaga keltiruvchi ustuvor vazifalar belgilab olingan bo'lib ular quyidagilar:

- ✓ Makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish;
- ✓ Tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirish;
- ✓ Qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish;
- ✓ Iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy mulk huquqini himoya qilsih va uning ustuvor mavqeini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rag'batlantirishga qaratilgan institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish;
- ✓ Viloyat, tuman va shaharlarmi kompleks va mutanosib ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, ularning mavjud salohiyatidan samarali va optimal foydalanish.<sup>ii</sup>

Yuqorida belgilab olingan ustuvor yo'nalishlar hamd tashabbuslar tizimli ravishda amaliyotga tadbiq qilindi. Misol tariqasida, 2017-2021-yillarda mamlakatimiz YaIM o'sish sur'atlari o'rtacha 5-7% lik ko'rsatkichlarni namoyon qildi. O'tgan yillar davomida iqtisodiyotni tubdan modernizatsiya qilish, tashqi va ichki savdoni rivojlantirish, tashqi aloqalarni rivojlantirish hamda yangi darajaga olib chiqish orqali iqtisodiyotga investitsiyalar oqimini rivojlantirish, davlatning iqtisodiyotdagi ishtiroki ya'ni aralashuvini kamaytirish, sog'lom raqobat muhitini shakllantirish va boshqa ko'plab islohotlar orqali makroiqtisodiy jihatda barqarorlik holati saqlab qolindi. Jumladan, o'tgan davr mobaynida investitsiya hajmi sezilarli ravishda oshdi.

2017-yildan boshlab mamlakatimizga investitsiya oqimi sezilarli ravishda ko'paygan. Har yili investitisiyaviy oqimni oshish holati kuzatilib, Muxtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev boshchiligida amalga oshirilgan iqtisodiy siyosat tufayli 2021-yilga qadar mazkur ko'rsatkichlar 3 baravarga ortdi.

Undan tashqari mamlakatimiz ichki siyosatida ham iqtisodiy jihatdan rivojlantirish maqsadida ko'plab islohotlar amalga oshirildi. Jumladan, amalga oshirilgan islohotlar natijasida bir qancha soliq stavkalari yukini kamaytirish imkonini berdi. Shu xususida, yurtimiz tashqi savo aylanmasi 2017-2020-yillar davrida 1,4 barobarga oshib, inflyatsiya ko'rsatkichlari 18% dan 11% ga tushirildi. Tadbirkorlik faoliyatlarini yanada erkinlashtirish ularning faoliyati yuzasidan noo'rin tekshiruvlarni oldini olish maqsadida soliq tekshiruvlari 13 tadan 4 tagacha qisqartirildi. Davlat fondlariga ajratmalar hamda sug'urta badallari ham bekor qilindi.<sup>iii</sup>

Yuqoridagi islohotlar davomli ravishda birgina 2017-yilning 1-chorak yakunlariga ko'ra yangi yo'lovchi poyezdini sotib olish, ichki temir yo'llar holatini yaxshilash maqsadida ta'mirlash hamda elektrlashtirish maqsadida 6 ta loyiha doirasidagi 107.7 mln. dollar, charm-poyabzal mahsulotlarini ishlab chiqarish sohasida aniq maqsadlar doirasida 12.7 mln., trikotaj hamda to'qimachilik sohasida esa 32mln. dollar mablag'lar soha rivojini oshirish hamda uni yanada kengaytirish maqsadida o'zlashtirildi.

Mamlakatimizdagi makroiqtisodiy barqarorlik holati ta'minlanishi negizida ijtimoiy soha ham tubdan rivojlantirildi. Misol tariqasida, "Harakatlar Strategiyasi" doirasida aholi yashash ya'ni turmush darajasi oshdi, maktabgacha ta'lim muassasalari 2020-yilgacha 5 mingtadan 18 mintagacha oshirildi, OTM sohasida 80 dan ortiq OTM lar tashkil qilindi, 10 nafar xususiy OTM, 20 dan ziyod filiallar tashkil etildi.

Yurtimizda kambag'allikni kamaytirish yuzasidan ham jadal ishlar olib borildi. Shu xususida aytib o'tish joizki mazkur yillarda yurtimizda ilk bor kambag'allik indeksi qo'llanilib mazkur indeks yuzasidan tahlillar olib borila boshlandi. Mazkur tahlillarni kuzatsak 2020-yilgacha mazkur ko'rsatkichlar mazkur toifaga kiruvchi aholining ushbu qatlamini ijtimoiy jihatda qo'llab-quvvatlash, tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb qilish va ko'maklashish, bandligini ta'minlash orqali 28% dan 11% gacha pasaytirildi.

2020 yil 26 martda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Iqtisodiyotni rivojlantirish va kambag'allikni qisqartirishga oid davlat siyosatini tubdan yangilash choratadbirlari to'g'risida"<sup>iv</sup> PF-5975-sonli Farmoni qabul qilindi.

Mazkur farmonda hududlarda aholining turmush darajasi va sifatini yaxshilash, xususan kambag'allikni qisqartirish vazifalari ko'p jihatdan iqtisodiyotning barcha tarmoq va sohalarining raqobatbardoshligini oshirish hamda tadbirkorlikni rivojlantirish uchun fundamental sharoitlarni yaratib berish hisobiga yangi va barqaror ish o'rinalini tashkil etishga katta ahamiyat qaratildi.

Kambag'allikni qisqartirish masalasi majmuaviy xarakterga ega bo'lib, avvalo iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan isloh qilish va rivojlanishiga aloqador vazirlik va idoralar faoliyati uyg'unligini ta'minlashni, mavjud muammo va to'siqlarni tezkorlik bilan aniqlash va bartaraf etishga asoslangan zamonaviy va inklyuziv institusional tizimni joriy etishni talab etadi. Boshqa tarafdan, ijtimoiy hayotda quyidagi muammolarga yechim topish orqaligina kambag'allikni qisqartirish mexanizmlari harakatga keladi:

1. Kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish bo'yicha yaxlit tizim va muvofiqlashtiruvchi davlat organi mavjud bo'lishi, meyoriy-huquqiy baza, mezonlar va baholash uslubiyotini takomillashtirish.
2. Milliy iqtisodiyotning hududiy va tarmoq rivojlanishi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik ta'minlanishi. Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishda inson kapitali va demografik omillarni inobatga olish. Asosiy ishchi kuchi, ishsizlar qishloq joylarida bo'lgan holatda, sanoat korxonalarini ushbu hududlarda joylashtirish.
3. Kichik va o'rtaligining rivojlanishning aniq yondashuvlarini belgilab olish, tadbirkorlikni moliiyaviy va nomoliyaviy qo'llab-quvvatlashning maqsadga yo'naltirilgan, ayniqla, aholini tadbirkorlikka o'qitish va kasbga o'rgatish ishlarini tizimlashtirish, shu jumladan barcha dasturlar hisobidan ajratilayotgan mablag'larning sarflanish samaradorligini baholash ishlarini tashkil etish.
4. Asosiy sanoat tarmoqlarida mehnat unumdarligini oshirish, sohaning raqobatbardoshligini kuchaytirish bo'yicha aniq mexanizm hamda dastaklarga asoslangan yagona industrial siyosat va strategiya ishlab chiqish<sup>v</sup> муҳим аҳамият касб этади.

Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash doirasida ham Biznes-ombudsman institutining tashkil etilishi esa tadbirkorlarimizning himoyasi yangi darajaga ko'tarilishiga sabab bo'ldi.

Xususan, oxirgi yillarda qabul qilingan mazkur yo'nalishga oid meyoriy-huquqiy hujjalalar, misol uchun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-martdag'i "Tadbirkorlik subyektlari va keng aholi qatlamiga mikrokreditlar ajratish tizimini yanada soddallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"<sup>vi</sup>

PQ-2844-son, 2017-yilning 19-iyundagi "Biznesning qonuniy manfaatlari davlat tomonidan muhofaza qilinishi va tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlantirish tizimini tubdan

takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF–5087-son Farmoni, 2018-yil 7-iyundagi “Har bir oila – tadbirkor” dasturini amalga oshirish to‘g‘risida»gi PQ–3777-son, 2018-yil 14-iyuldagagi “Aholi bandligini ta‘minlash borasidagi ishlarni takomillashtirish va samaradorligini oshirish choratadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–3856-son va boshqa qarorlari asosida respublikamizda samarali va tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Aholining ijtimoiy hayotini yanada yaxshilash maqsadida o‘tgan yillar davomidan ko‘plab uylar qurildi hamda ichki yo‘llar ta‘mirlandi, infrastruktura holatlari tubdan yaxshilandi. Shu asnosda aytishimiz mumkinki “Harakatlar Strategiyasi” rivojlanish yo‘lida asl harakatlarni boshlab berdi desak adashmaymiz.

Keyingi yillarda mamlakatimiz rivojlanish yo‘lidagi istiqbolli islohotlarning keyingi ustuvor darajasi – “Harakatlar Strategiyasi”dan “Taraqqiyot Strategiysi”ga o‘tish hamda mazkur dastur doirasidagi maqsad va vazifalarni amalga oshirish jarayonlari jadal ketmoqda.

Ushbu dastur 28.01.2022-yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan bo‘lib, unda 7 ta ustuvor yo‘nalishlar belgilangan:

- I. Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish;
- II. Mamlakatimizdaadolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish;
- III. Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o’sish sur’atlarini ta‘minlash;
- IV. Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish;
- V. Ma‘naviy taraqqiyotni ta‘minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish;
- VI. Milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish;
- VII. Mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq, pragmatik va faol siyosat olib borish.<sup>vi</sup>

So‘nggi yillarda Yangi O‘zbekiston siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy hayotida rivojlanish yo‘lining yangi bosqichi yo‘lida dadil odimlab bormoqda. Jumladan, mamlakatimizda uchinchi renesseans jarayonida rivojlanish jabhalarining yangi tendensiyalari namoyon bo‘lmoqda.

Mazkur strategiyada mavzu doirasidagi masalalarga atroflicha to‘xtalib o‘tilgan bo‘lib quyida ularga yoritib o‘tishga harakat qilamiz.

“Taraqqiyot strategiyasi”da har bir jabhalaragi mavjud muammolarga yechim toppish, undan tashqari yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolar, barcha tarmoqlardagi amalga oshirilishi kerak bo‘lgan islohotlar yuzasidan birma-bir maqsadlar qo‘yib chiqilgan bo‘lib, bugun jadal sur’atlarda olib borilayotgan siyosatimizda mazkur maqsadlarni ro‘yobga chiqayotganini ko‘rishimiz mumkin.

21-maqsad: Iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror yuqori o’sish sur’atlarini ta‘minlash orqali kelgusi besh yilda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotni – 1,6 baravar, va 2030-yilga borib aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadni 4000 AQSh dollaridan oshirish hamda “daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar”qatoriga kirish uchun zamin yaratish.<sup>vii</sup>

“Taraqqiyot strategiyasi”da keltirib o‘tilgan maqsad yuzasidan bugungi kunda mamlakatimizda jadal ishlari olib borilmoda. Jumlada, inflayatsion target asosida kelgusi yillarda mazkur target darajasi 5% etib belgilangan bo‘lib, maqsad doirasida ham jadal islohotlar davom etmoqda. Undan tashqari, mamlakatimizda YaIM ko‘rsatkichlari so‘ngi yillarida o‘rtacha 5-7% lik o’sish sur’atlari qayd etilmoqda. Shu o‘rinda aytib o‘tish kerakki o‘tgan yillar mamlakatimiz iqtisodiy hayoti uchun ham sinovli yillar desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Og‘ir pandemiya davrida ham mamlakatimizda olib borilgan keng qamrovli islohotlar natijasida mamlakatimiz iqtisodiyotida iqtisodiy o’sish sur’atlari namoyon bo‘ldi. Jumladan, o‘sma davrlarda mamlakat iqtisodiy barqaror holatini saqlash va uni yanada mustahkamlash borasida yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun ijtimoiy soliq darajasi 50% gacha kamaytirildi, 3500 ga yaqin biznes subyektlarining 147 mlrd. so‘mga yaqin soliq majburiyatlarini to‘lash muddatlari kechiktirildi, 222 mingga yaqin

subyektlarning 1,2 trln. so'm soliq majburiyatlarini majburiy undirish holati to'xtatildi, kichik biznes subyektlariga bir qncha soliq imtiyozlari jumladan yer-mulk soliqlarini to'lash tartibidan ozod qilindi, undan tashqari, kichik biznes hamda mikrofirmalar uchun ijtimoiy soliq stavkasi 12% dan 1% ga tushirildi, 6 mingga yaqin tadbirkorga 9 trln. so'm qo'shilgan qiymat solig'i salbiy ko'rinishdagi farq summalar davlat byudjetidan qoplab berildi, aholi va tadbirkorlar tomonidan tijorat banklaridan olingan 26,5 trln. so'mlik kredit summalarini to'lash muddatlari uzaytirildi, aholining ijtimoiy himoyasiga doir 1 mln. 208 mingga yaqin ijtimoiy himoyaga muhtoj oila ro'yxatga olinib 652,2 mlrd. so'mlik yordamlar ko'rsatildi. Ushbu puxta o'ylanib o'z vaqtida olib borilgan keng ko'lamli siyosat natijasida milliy iqtisodiyotimiz og'ir davrda ham o'z barqarorligini yetarli darajada ushlab tura oldi, va mamalakatimizda shu davrda ham iqtisodiy o'sish holati kuzatildi.

"Taraqqiyot strategiyasi" ning keyingi maqsadlarida milliy iqtisodiyotimizning barqaror holatini yanada mustahkamlash, yalpi ichki mahsulot ko'satkichlarining o'sish holatini ta'minlash, sanoat mahsulotlarinin ishlab chiqarish hajmini yanada oshirish, "yashil iqtisodiyot" texnologiyalarini faol joriy etish, iqtisodiyotda energiya salohiyatini yanada oshirish, raqamli iqtisodiyotni yanada rivojlantirish, mamlakatning investitsiya muhitini yaxshilash va yana bir qancha dolzarb masalalar o'z aksini topgan.

Mazkur maqsadlar doirasida kelgusi yillarda davlat byudjetining samarodrligini oshirish maqsadida davlat byudjetining taqchilligini qisqartirish hamda 2023-yildan YAM ga nisbatan 3% dan oshib ketmasligini ta'minlash. Tuman byudjetlarining eng kamida 5% qismi "Fuqarolar byudjeti" dasturi doirasida hududdagi mavjud muammolar yechimi yuzasidan aholining taklifiga binoan yo'naltirish, davlat boshqarishda esa yiliga jalg qilinuvchi tashqi qarz miqdori 4,5 mlrd. dollardan oshib ketmasligini ta'minlash. Sanoat tarmoqlarini yanada rivojlantirish, iqtisodiyot tarmoqlari hamda aholining neft maxsulotini iste'molini muntazam ta'minlash maqsadida mazkur maxsulotlarni uzlusiz yetkazib berish, iqtisodiyot energiya tarmoqlarning samaradorligini yanada oshirish, jumladan, "yashil iqtisodiyot" texnologiyalaridan barcha sohalarda keng foydalanish, sanoat tarmoqlarida resurslar ishlatalish samaradorligini yanada oshirish, barcha sohalarda uy-joy kommunal xo'jaligi, ijtimoiy sohalar obyektlarida qayta tiklanuvchi energiya resurslarini va texnologiyalarini joriy qilish, energiya samaradorligini oshirish, elektromobillar ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish hamda ulardan foydalanish bo'yicha kerakli choralar ko'rish, iqtisodiyot tarmoqlarining ishlab chiqarish jarayonida havoga chiqariluvchi zararli gazlar miqdorini har birlik yalpi ichki mahsulot hisobida 10% gacha qisqartirish.

Keyingi yillarda raqamli iqtisodiyot sohasiga ham e'tibor kuchaytirildi. Ayanan bu sohaning o'rni hamda dolzarbli pandemiya va Undan keyingi jarayonlarda yaqqol namoyon bo'ldi. Jumladan, Muxtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan mazkur sohaga alohida e'tibor qaratilib har yili an'anaga aylangan har bir yilning davlat dasturidan kelib chiqqan holda nomlanishi asosida 2020-yilni "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili" deb nomlandi. Shu xususida, Prezidentimiz tomonidan "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori qabul qilindi. O'sha yildan boshlab mamlakatimiz hayotida raqamli texnologiyalarning yangi davri boshlandi desak mubolag'a bo'lmaydi.

O'tgan yillar davomida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish sohasida 400 dan ortiq axborot tizimlari, elektron xizmatlar hamda boshqa mahsulotlar joriy etilishi belgilandi. Hukumatning tegishli qaroriga binoan hokimliklar o'zining faoliyati yuzasidan keng jamoatchilikka electron hisobot berishi belgilandi. Vazirlilik va idoralarning axborot tizimlari hamda axborot resurslari yagona reestrga kiritilishi belgilandi. Jumladan, vazirlilik va idoralarda jami 260 dan ortiq loyihibalar amalga oshirildi. Yagona interaktiv xizmatlari portal tashkil etilib, mazkur portalda

ko'rsatiladigan xizmatlar soni 218 taga yetkazildi. Identifikatsiya tizimlari takomillashtirilib, mazkur jarayonning yagona tizimi modernizatsiya qilindi va amaliyotga keng joriy etildi, 621 mingdan ortiq foydalanuvchilar mazkur tizimga ulandilar.

Mazkur davlat dasturi 142-bandiga binoan IT Parklar tashkil etildi. Jumladan, Andijon, Farg'ona, Sirdaryo, Jizzax, Samarqand viloyatlarida IT Park va uning filiallari tashkil etilib, foydalanishga topshirildi. Mazkur loyiha doirasida 900 da ziyod dasturiy tizimlar ishlab chiqildi.

Raqamli infratuzilma sohasida ham bir qancha ijobjiy natijalar kuzatildi. Internet tarmog'iga bevosita ulanish portlari soni qariyb 3 mln. taga yetkazilib, 3000 ga yaqin tayanch stansiyalar modernizatsiya qilindi. 5 petabayt sig'imli ma'lumotlarni saqlash, qayta ishlash markazi tashkil etildi, aloqa kanallarining ijara tariflari 2 barobar arzonlashdi, internet xizmatlari tariflari esa 29% ga arzonlashtirildi, 14 000 km. dan ziyod shisha tolali aloqa liniyalari tashkil etilib yuqori tezlikdagi internet tarmog'iga ulanish imkoniyatlari kengaytirildi. Shu xususida 8095 xalq ta'limi tizimidagi muassasalar, 5440 ta MTT muassasalari, 3207 ta sog'liqni saqlash tizimidagi muassasalar yuqori tezlikdagi internet tarmog'iga ulandi.

Mamlakatimizda nafaqat raqamli texnologiyalar balki ushbu texnologiyalarni ishlab chiquvchi mutaxassislarni tayyorlash yo'lida ham keng ko'lami islohotlar amalga oshirilmoqda. Mazkur soha bo'yicha "Bir million dasturchi" loyihasi amalga oshirilib, mazkur dastur doirasida 18 mingdan ortiq o'quvchi dasturlash kurslarini tamomlab, o'zlarida bilim va ko'nikmalarni gosil qildi.

Kelgusi yillarda esa mazkur jarayonlar davomli hamda sobitqadamlik bilan jadal rivojlantirilishi ya'ni davom ettirilishi "Harakatlar strategiyasi"dan "Taraqqiyot strategiyasi"ga o'tish jarayonlari bilan bevosita bog'liq bo'lib, mazkur rivojlanish strategiyalarida ko'tarilgan masalalarni belgilab olingan maqsadlar asosida amalga oshirish mamlakatimiz hayotida ko'plab yillardan beri saqlab kelinayotgan bebaho ne'mat tinchlik va farovonlikni ta'minlashga qaratilgandir.

Mamlakatimizning kelgusi yetti yillik taraqqiyotini, rivojlanish strategiyasini belgilab beruvchi muhim dasturiy hujjat — "O'zbekiston — 2030" strategiyasida belgilangan maqsad-vazifalar ijrosini ta'minlash, ularni keng targ'ib-tashviq qilish uning hayotiyligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois ham Strategiya mazmunini, ahamiyatini turli soha vakillari va yoshlar orasida tushuntirishga qaratilgan ishlar yo'lga qo'yilgan.

Xususan, Strategiyada barqaror iqtisodiy o'sish orqali aholi farovonligini ta'minlash bo'yicha belgilangan qator vazifalar, tashabbuslar mamlakatimizning iqtisodiy qudratini yanada yuksaltirishga xizmat qiladi. Jumladan, bu boroda hujjatda 2030 yilga qadar iqtisodiyot hajmini 2 barobar oshirish va "daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar" qatoriga kirish asosiy maqsad qilib olinmoqda. Bunda kelgusi yetti yillikda yalpi ichki mahsulot hajmini 160 milliard dollarga va aholi jon boshiga daromadlarni 4 ming dollarga yetkazish ko'zda tutilgan.

Shuningdek, mamlakatimizning investitsiyaviy jozibadorligini yanada oshirish, eksport hajmini 2 barobar oshirib, 45 milliard dollarga yetkazish, eksportchi korxonalar sonini 6,5 mingtadan 15 mingtaga yetkazish, eksport tarkibida tayyor va yarim tayyor mahsulotlar hajmini 3,3 barobar ko'paytirish kabi muhim vazifalar belgilangan. Bu kabi maqsad-vazifalarning amalga oshirilishi davlatimiz rivojiga, aholi farovonligini ta'minlashga xizmat qiladi<sup>viii</sup>.

**XULOSA.** Umuman olganda, mamlakatimiz hayotida tub burilishlar asosida rivojlanishning yangi tendensiyalari yaqqol ko'zga tashlanmoqda.

Bugungi kunga kelib rivojlanish strategiyalari hamda davlat dasturlari asosida Muxtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev boshchiligidagi mamlakatimiz har tomonidan rivojlanmoqda. O'tgan yillarda ta'bir joiz bo'lsa mamlakatimiz hayotida har bir jahbada jonlanish, rivojlanish, yuksalish holatlari namoyon bo'ldi.

Davlatimiz siyosati yangi darajaga ko'tarilib bunda ochiqlik, shaffoflik hamda fuqarolar ishtiroki, ularning haq-huquqlari himoyasi ta'minlanishiga ayniqsa e'tibor qaratildi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. <sup>i</sup> Жумаев Ч., Сафаров Н. Иқтисодиёт назарияси –Т.: “Тафаккур”, 2009. –Б. 28.
2. <sup>ii</sup> 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, 07.02.2017 йилдаги ПФ-4947-сон. <https://lex.uz/docs/3107036>.
3. <sup>iii</sup> O'zbekiston: besh yil davomida amalga oshirilgan jadal islohotlar” mavzusida bo'lib o'tgan xalqaro konferensiya. –Т.: 2021-yil 5-oktabr, <https://yuz.uz/uz/news/harakatlar-strategiyasi-islohotlar-natijalari-muhokama-qilindi>.
4. <sup>iv</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Иқтисодиётни ривожлантириш ва камбағалликни қисқартиришга оид давлат сиёсатини тубдан янгилаш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ5975-сонли Фармони. 2020 йил 26 марта. <https://lex.uz/docs/4776669>.
5. <sup>v</sup> Г.Алимова, М.Фаниев. Ўзбекистонда камбағалликни қисқартириш механизmlарини такомиллаштириш. “Барқарор иқтисодий ривожланиш бўйича стратегик ташабbuslar ва амалий тавсиялар: салоҳият ва хатарлар” мавзуудаги Илмий-амалий конференция мақолалари тўплами. //О.Олимжоновнинг умумий таҳрири остида. –Т.: IFMR, 2021. –Б.68.
6. <sup>vi</sup> 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning “Taraqqiyot Strategiyasi”, 2022-yil 28-yanvarda tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-son Farmoni.
7. <sup>vii</sup> 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning “Taraqqiyot Strategiyasi”, 2022-yil 28-yanvarda tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-son Farmoni 1-ilova.
8. <sup>viii</sup> Strategiya: 2030-yilgacha iqtisodiyot hajmi 2 barobar oshiriladi. <https://uza.uz/posts/535029>.